

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – TA’LIM KAFOLATI SIFATIDA

**Xayitgul Muzaffarova Nesibovna**

**Jizzax Davlat pedagogika universiteti dotsenti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20699614>

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalarning ta’lim sifatini oshirishdagi o’rni, ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati hamda ta’lim jarayonining samaradorligini kafolatlashdagi roli ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari, innovatsion yondashuvlar hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi, interaktiv metodlar, ta’lim jarayoni

Ta’lim-tarbiya texnologiyalari (pedagogik texnologiyalar) tushunchasi – ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish, samarali ta’limiy tizimlarni tashkil etishga qaratilgan pedagogik ilm yo’nalishidir. U tarbiyalanuvchining ta’lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi bilan bog’liq muammolarni yechishni ta’minlovchi yo’l, usul, qadamlar ketma-ketligidir.

Psixologik-pedagogik lug’atda “ta’lim texnologiya” tushunchasi ijtimoiy tajribani avlodlarga taqdim etish shakllari, usullari, metodlari, vositalari hamda mazkur jarayonni texnik jihozlashni o’z ichiga oluvchi birlik sifatida talqin etiladi. Bunda ta’lim-tarbiya texnologiyalari muolaja, ya’ni ma’lum xatti-harakatlari tizimi, natijani kafolatlovchi pedagogik jarayonni ishlab chiqish va ketma-ketlikda amalga oshirish ish-harakatlar majmuasi sifatida ta’riflanadi. Didaktik texnologiyalar o’quv metodikasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini to’liq boshqarish, ta’limiy va tarbiyaviy tsikllarni loyihalashtirish va amalga oshirish - g’oyasi ta’lim-tarbiya texnologiyasini asosini tashkil etadi. Ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan “texnologiya” (grekcha *techne* – san’at, ustalik, ko’nikma, *logos* - ta’limot) tushunchasi pedagogikada yagona izohga ega bo’lmay, hozirda turli mualliflar tomonidan asosiy ikki yo’nalishda ta’riflanadi.

1. Ta’limni yangi, yanada ratsional yo’llarini ishlab chiquvchi pedagogikani bir bo’limi sifatida:
  - Ta’lim metodlari, usullari, shakllari, tarbiya vositalarining maxsus to’plami va kompanovkasini o’zida aks ettirgan psixologik-pedagogik ustanovkalarni yig’indisi (I.P.Volkov);
  - Pedagogik maqsadlarga erishida qo’llanuvchi barcha shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarni ishlash tartibi va birligi tizimi (M.V.Klarin);
  - O’quv-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga yo’naltirilgan ta’limiy jarayon tuzilmasini tashkil etuvchi ilmiy asoslangan faoliyat usullari va yo’llari birligi (A.L.Anoshkin);
2. Real ta’limiy jarayonda qo’llanuvchi usul va metodlar tizimi sifatida:
  - Pedagogning spetsefik pedagogik asosda ma’lum pedagogik standartni eng ratsional yo’l bilan erishish maqsadidagi o’quvchilar bilan operatsiyaninglar ketma-ketligi ko’rinishida tashkil etilgan faoliyati (S.A.Mavrin);
  - Ma’lum ishlab chiqarish yoki ijtimoiy muammoni ilmiy asosda ishlab chiqilgan qadama-qadam, izchil yechish jarayonidir (G.K.Selevko);
  - Faoliyatni ratsional tarzda muolaja va operatsiyalarga bo’lish, ularni nazorat qilish hamda optimal vosita, metodlarini tanlagan ravishda amalga oshirish usulidir (S.N.Danakin).

Ko’pgina ilmiy adabiyotlarni tahlil etish asosida “Texnologiya” so’ziga quyidagi ta’riflarni aniqladik:

Texnologiya bu – ma’lum ish, san’at jarayonida ko’llaniluvchi usullar majmuasidir. “Pedagogik texnologiya – bu o’qituvchi (tarbiyachi)ning o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida

o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir”. (N.Saidaxmedov, O.Ochilov)

“Pedagogik texnologiya – pedagogik jarayonni boshqarish omili sifatida quyidagi mazmunga ega: PT - ta’lim jarayonini loyihalash asosida tashkillashtirish, uning samarali natijasini kafolatlovchi hususiyatlarga, (pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik stil, pedagogik aniqlik) pedagog faoliyatining innovatsion hususiyatlariga (ijodkorlik – kreativlik, yuksak professionalizm – akmeologiya, tahliliy va tanqidiy yondoshuv - refleksiya) tayangan xolda ta’limning yangi shakl va usullarini yaratish va amaliyotga joriy etishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir” (S.Yo‘ldosheva).

SHu o‘rinda ko‘pgina ta’limiy texnologiyalar orasida didaktik o‘yin texnologiyalarni alohida e’tibor berish joiz. Tarbiyalanuvchilarni nutqini va fikrlash operatsiyalarini faollashtirish, bog‘langan nutqini rivojlantirish hamda umumiy ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida aqli zaif bolalar maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin faoliyati quyidagi hollarda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq:

- Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘tiladigan mavzular, tushunchalarni o‘zlashtirish maqsadida mustaqil texnologiyalar sifatida;
- Biror keng qamrovli texnologiyaning ma’lum qismi yoki elementi sifatida;
- Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘tiluvchi mashg‘ulotlar o‘rniga yoki ularni bir qismi sifatida.
- Madaniy dam olish yo‘lariga qaratilgan texnologiyalar sifatida (“Mo‘jizalar maydoni”, “Yulduzli daqiqa”, “Bilimtoylar” kabi o‘yinlar).

Mashg‘ulotlarda didaktik o‘yin texnologiyalari tarbiyalanuvchilarni o‘qish faoliyatiga kirishishiga sharoit va qiziqish uyg‘otuvchi o‘yin usullari va vaziyatini yaratishni o‘z ichiga oladi. Didaktik o‘yin texnologiyalarining asosiy va eng muhim belgisi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’limiy maqsadga qaratilgani hamda o‘quv-bilish sohasiga yo‘naltirilgan, asoslangan pedagogik natijalariga to‘liq muvofiqidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Голиш Л.В. “Замонавий таълим технологиялари: мазмун, лойиҳалаштириш ва амалга ошириш”. Экспресс қўлланма. -Т.: ТАСИС, 2001
2. Ишмухаммедов Р. “Тарбияда инновацион технологиялар”. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2010 йил.
3. Акрамова, Х. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12), 1-5.извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3162](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162)
4. Djurayeva, S., & Omonboyeva, K. (2020). MAXSUS TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(56). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4512](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4512)
5. Muzaffarova, X. (2020). Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари: *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(39).извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6017](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6017)